



**XORIJDAGI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FUQAROLARI HUQUQINI
KONSULLIK XIZMATI ORQALI HIMOYA QILISHNING O‘ZIGA XOS
JIHATLARI VA XUSUSIYATLARI**

To‘rayev Baxtiyor Xolboy o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti, Xalqaro
arbitraj va nizolarni hal qilish mutaxassisligi magistranti,

Annotatsiya:

Mazkur tezis O‘zbekiston Respublikasining konsullik xizmati orqali xorijdagi fuqarolarni huquqiy himoya qilish mexanizmlarini huquqiy-nazariy, institutsional va amaliy nuqtai nazardan tahlil qiladi. Konsullik himoyasining xalqaro-huquqiy asosi bo‘lmish 1963-yilgi Vena konvensiyasi hamda O‘zbekiston milliy qonunchiligidagi asosiy hujjatlar (Konstitutsiya, Konsullik Nizomi, “Fuqarolik to‘g‘risida”gi Qonun) asosida konsullik faoliyatining vakolatlari, tamoyillari va huquqiy chegaralari yoritilgan. Shuningdek, real amaliy holatlar (jumladan, COVID-19 pandemiyasi davridagi ommaviy repatriatsiya) asosida mavjud muammolar ochib berilgan: xodimlar tanqisligi, til to‘siqlari, ikki fuqarolik muammosi, raqamli xizmatlar yetishmovchiligi. Rossiya, AQSh va Yevropa Ittifoqi kabi davlatlarning ilg‘or tajribasi asosida O‘zbekiston uchun tegishli taklif va xulosalar ishlab chiqilgan. Tezis yakunida konsullik tizimini takomillashtirishga qaratilgan aniq huquqiy va tashkiliy choralar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Konsullik himoyasi, Vena konvensiyasi, O‘zbekiston Respublikasi, fuqarolarning huquqiy himoyasi, xorijdagi fuqarolar, konsullik xizmati, xalqaro huquq, milliy qonunchilik, diplomatik vakolatxonalar, konsullik yordami, vataniga qaytarish (repatriatsiya), diaspora siyosati, tashqi siyosat, konsullik amaliyoti, huquqiy mexanizmlar, ikki fuqarolik (dual fuqarolik), xalqaro tajriba.



**SPECIFIC ASPECTS AND FEATURES OF PROTECTION OF THE
RIGHTS OF CITIZENS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN ABROAD
THROUGH CONSULAR SERVICE**

Turayev Bakhtiyor

Tashkent State Law University, Master's degree student in
International Arbitration and Dispute Resolution,

Annotation: This thesis analyzes the mechanisms of legal protection for Uzbek citizens abroad through the consular services of the Republic of Uzbekistan from legal-theoretical, institutional, and practical perspectives. It outlines the international legal basis of consular protection—primarily the 1963 Vienna Convention on Consular Relations—as well as key national legal documents such as the Constitution of Uzbekistan, the Consular Statute, and the Law “On Citizenship.” The thesis describes the mandates, principles, and legal boundaries of consular activity. It also highlights real-life practical issues, including mass repatriation during the COVID-19 pandemic, staff shortages, language barriers, dual citizenship complications, and limited access to digital services. Based on the advanced practices of countries like Russia, the USA, and the European Union, specific recommendations and conclusions are proposed. The thesis concludes by presenting legal and organizational measures aimed at improving Uzbekistan’s consular system.

Keywords: Consular protection, Vienna Convention, Republic of Uzbekistan, legal protection of citizens, citizens abroad, consular service, international law, national legislation, diplomatic missions, consular assistance, repatriation, diaspora policy, foreign policy, consular practice, legal mechanisms, dual citizenship, international experience.

Globallashuv sharoitida xalqaro migratsiya, transchegaraviy mehnat harakati va xorijiy mamlakatlarda yashovchi fuqarolar sonining ortib borishi davlatlar zimmasiga yangi mas’uliyatlarni yuklamoqda. Xususan, fuqarolarning xorijiy yurisdiksiya doirasida huquq va manfaatlarini ta’minlash masalasi mustaqil davlatlar uchun strategik ustuvorlik kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ham



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th June 2025

xorijdagi fuqarolarning huquqiy maqomini mustahkamlash, ularni himoya qilish va zarur hollarda konsullik yordamlarini ko'rsatish tashqi siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. 2021-yilgi statistikaga ko'ra, O'zbekistonning 1,6 milliondan ortiq fuqarosi chet elda mehnat faoliyati bilan shug'ullanmoqda. Bu esa konsullik xizmatining rolini keskin oshirib, ularni institutsional va normativ jihatdan takomillashtirish ehtiyojini yuzaga keltirmoqda.

1. Konsullik himoyasining xalqaro va milliy-huquqiy asoslari

Konsullik himoyasi xalqaro huquqning ajralmas qismi bo'lib, davlatlarning o'z fuqarolariga nisbatan xorijda huquqiy, tashkiliy va insonparvarlik asosida ko'rsatuvchi faoliyati sifatida shakllangan. Bu institut xalqaro odat huquqi doirasida uzoq tarixga ega bo'lsa-da, zamonaviy holatda uning huquqiy asoslari aniq normativ hujjatlar bilan belgilanadi. Xalqaro huquq doirasida konsullik himoyasining bosh hujjati — bu 1963-yil 24-aprelda BMT tomonidan qabul qilingan “Konsullik aloqalari to'g'risida Vena konvensiyasi” hisoblanadi. Konvensiyaning 5-moddasiga muvofiq, konsullik mansabdor shaxslari o'z fuqarolarining huquqiy manfaatlarini himoya qilish, pasport va boshqa hujjatlarni rasmiylashtirish, fuqarolarning huquqiy holatini aniqlash, hibsga olingan yoki sudlanayotgan shaxslar bilan muloqot qilish kabi vakolatlarga ega. Ayniqsa, 36-moddada hibsga olingan fuqaroga konsullik bilan bog'lanish huquqining ta'minlanishi xalqaro normalarda muhim qadam hisoblanadi.

Milliy qonunchilik nuqtai nazaridan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 23-moddasi fuqarolarning davlat himoyasida bo'lishi huquqini kafolatlaydi. “O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida”gi Qonunda esa xorijdagi fuqarolarning huquqlari va manfaatleri O'zbekiston diplomatik vakolatxonalari orqali himoya qilinishi belgilangan. 2019-yilda qabul qilingan Konsullik Nizomi konsullik xodimlarining aniq funksiyalarini tartibga soladi. Unda hibsdagi fuqarolarga yordam ko'rsatish, repatriatsiya, notarial xizmatlar ko'rsatish, pasportlarni rasmiylashtirish kabi asosiy funksiyalar sanab o'tilgan.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi turli davlatlar bilan ikki tomonlama konsullik shartnomalari tuzgan bo'lib, bu huquqiy asoslar Vena konvensiyasini milliy huquqiy mexanizmlar bilan muvofiqlashtirishda muhim vosita hisoblanadi. Bu shartnomalar orqali ba'zan Vena konvensiyasidagi umumiy tamoyillar aniq



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th June 2025

protseduralar bilan boyitiladi — masalan, hibsga olingan fuqaroni xabardor qilishning aniq muddatlari, konsullik kirishi uchun ruxsat shakllari va muddatlari belgilab qo'yiladi.

2. **Konsullik xizmati amaliyoti va mavjud muammolar**

Amaliyotda, ayniqsa favqulodda vaziyatlarda konsullik xizmati o'zini samarali tizim sifatida namoyon etgan. Masalan, 2020–2021-yillar davomida COVID-19 pandemiyasi davrida Rossiya Federatsiyasida qolib ketgan 380 mingdan ortiq o'zbekistonlik fuqarolar O'zbekiston elchixonasi va konsulliklari ko'magida vatanga qaytarildi.

Shunga qaramasdan, konsullik amaliyotida qator tizimli muammolar ham mavjud:

1. Konsullik xodimlari yetishmovchiligi. Xorijda yashayotgan o'zbekistonliklar soni juda katta bo'lishiga qaramay, u yerda faoliyat yuritayotgan konsullik xodimlari soni yetarli emas. Bu holat, ayniqsa Rossiya va Qozog'istonda sezilarli darajada bo'lib, fuqarolar murojaatlarining kechiktirilishiga, ayrim hollarda ko'rib chiqilmasligiga olib kelmoqda.

2. Mahalliy qonunchilikni bilmaslik va til to'siqlari. Konsullik xodimlari mezbon davlat qonunlarini chuqur bilmasligi, shuningdek mahalliy tilni yetarli darajada egallamagan hollarda fuqarolarga ko'rsatiladigan huquqiy yordam samaradorligi pasayadi.

3. Ikki fuqarolik masalasida noaniqlik. O'zbekiston qonunchiligi ikki fuqarolikni tan olmaydi, ammo amaliyotda ba'zi fuqarolar boshqa davlat fuqaroligini ham qabul qilgan bo'lishi mumkin. Bu esa konsullik himoyasining cheklanishiga olib keladi.

4. Raqamli xizmatlar yetishmovchiligi. Hozirgi raqamli transformatsiya davrida konsullik xizmatlarining ko'pchiligi hanuzgacha an'anaviy (qog'ozbozlikka asoslangan) tarzda olib boriladi. Interaktiv onlayn portal, mobil ilovalar, tezkor murojaat tizimlari, onlayn maslahatlar hali to'liq joriy etilmagan.

5. Xorijiy tajriba va takliflar. Xorijiy mamlakatlar konsullik amaliyotida O'zbekiston uchun o'rnak bo'la oladigan ilg'or huquqiy va tashkiliy mexanizmlar mavjud. Bu tajribalar xalqaro normalar va mahalliy qonunchilik sinteziga asoslanadi, shuningdek ular zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirilgan. Konsullik xizmatlarini samarali tashkil qilishda ushbu modellar tahlil qilinishi va moslashtirilgan holda milliy tizimga integratsiya qilinishi maqsadga muvofiq.



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th June 2025

Rossiya Federatsiyasi xorijda eng ko'p fuqaroga ega davlatlardan biri bo'lib, konsullik himoyasining keng tarmog'iga ega. Rossiya konsullik xodimlari "Rossiya Federatsiyasi fuqaroligiga ega bo'lgan shaxslarning huquq va erkinliklarini chet elda himoya qilish tartibi to'g'risidagi qonun" asosida faoliyat yuritadi. Ushbu qonun fuqarolarning chet elda huquqlarini himoya qilish, ularni repatriatsiya qilish, zarur hollarda huquqiy yordam ko'rsatish bo'yicha aniq normativ asos yaratadi. Rossiyada faxriy konsullar institutidan ham faol foydalaniladi. Faxriy konsullar Rossiya fuqarolariga notarial xizmatlar, maslahat, tarjima va vakolatxona mavjud bo'lmagan hududlarda ko'mak ko'rsatish bo'yicha vakolatli shaxslardir. Ayniqsa, pandemiya davrida xorijdagi Rossiya fuqarolari uchun tezkor evakuatsiya, moddiy yordam va yuridik maslahatlar tashkil etilgan bo'lib, bu amaliyot O'zbekiston uchun ham dolzarb tajriba hisoblanadi.

AQSh konsullik amaliyoti ham ilg'or yondashuvlar bilan ajralib turadi. AQSh Davlat departamenti huzurida faoliyat yurituvchi Konsullik ishlari byurosi fuqarolarning chet eldagi huquq va xavfsizligini ta'minlash uchun maxsus dasturlarni ishlab chiqqan. Ulardan eng muhimi — "Smart Traveler Enrollment Program" (STEP) bo'lib, ushbu tizim fuqarolarning onlayn ro'yxatdan o'tishini, ularning joylashuvi haqida diplomatik vakolatxonalarga ma'lumot berilishini, favqulodda holatlarda tezkor ogohlantirishlar yuborilishini ta'minlaydi. Shuningdek, favqulodda holatlar uchun maxsus fondlar, yuridik ko'mak, sog'liqni saqlash xizmatlariga yo'naltirish mexanizmlari ham mavjud.

Yevropa Ittifoqi (YI) davlatlarida esa konsullik yordami "YI fuqarosining diplomatik va konsullik himoyasi to'g'risida"gi 2015/637-sonli Direktiva asosida amalga oshiriladi. Ushbu normativ hujjatga ko'ra, agar YI a'zo davlati fuqarosi elchixonasi mavjud bo'lmagan mamlakatda bo'lsa, u boshqa YI a'zo davlatining diplomatik vakolatxonasiga murojaat qilish huquqiga ega. Bu amaliyot YI ichida "konsullik yordamini birlashtirish" tamoyiliga asoslangan bo'lib, yordamning doirasi va tartibi huquqiy asosda belgilanadi.

Bundan tashqari, xorijiy tajribalarda raqamli konsullik xizmatlari keng rivojlangan. Masalan, Germaniya va Estoniya konsulliklari onlayn pasport yangilash, randevu tizimi, video maslahatlar va elektron notarial xizmatlarni joriy etgan. Shu asosda O'zbekiston uchun quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqilishi mumkin:



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th June 2025

1. Konsullik vakolatlarini zamonaviy xavf-xatarlarga moslashtirish. Mehnat ekspluatatsiyasi, odam savdosi, kiberjinoyatlar, ekstremistik tashkilotlarga jalb etilish kabi tahdidlar zamonaviy davrda kengayib bormoqda. Konsullik xodimlarining bunday vaziyatlarda qonuniy asosda harakat qilishi uchun O'zbekiston qonunchiligiga maxsus modda va normalar kiritilishi zarur. Shu bilan birga, favqulodda vaziyatlar uchun tezkor choralar rejasini ishlab chiqish, chet eldagi elchixonalar uchun yagona inqiroz boshqaruvi protokoli ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

2. Raqamli konsullik xizmatlarini rivojlantirish. Konsullik xizmatlarining onlayn portal, mobil ilova, elektron randevu, video maslahat, elektron notarial tasdiqlar kabi raqamli yechimlar bilan boyitilishi fuqarolarga qulaylik yaratadi. Har bir fuqaro uchun shaxsiy profil (kabinet) ochilib, murojaat holatini kuzatish imkoniyati yaratilishi kerak.

3. Faxriy konsullar institutini joriy etish va kengaytirish. Elchixona yoki konsullik bo'lmagan hududlarda faxriy konsullar fuqarolarga huquqiy, notarial va maslahat yordami ko'rsatadi. O'zbekiston ham bu institutni xalqaro tajribaga asoslanib kengaytirishi, maxsus vakolat berish orqali uni ishonchli vosita sifatida mustahkamlashi zarur.

4. Konsullik xodimlari salohiyatini oshirish. Har yili konsullik kadrlari uchun xorijiy tillar, xalqaro huquq, inqiroz boshqaruvi, mahalliy qonunchilik bo'yicha maxsus tayyorgarlik va malaka oshirish kurslari tashkil etilishi lozim. Diplomatlarni baholash mezonlari aniqlashtirilib, samarali faoliyat ko'rsatganlarga mukofot tizimi joriy etilishi mumkin.

5. Migratsiyadan oldingi tayyorgarlikni kuchaytirish. Mehnat migrantlariga xorijga chiqishdan oldin huquqiy savodxonlik bo'yicha treninglar, maslahat xizmatlari, yo'l-yo'riq broshyuralari va videodarsliklar taqdim etilishi kerak. Shuningdek, chet elda duch kelinadigan holatlar va muammolar bo'yicha maxsus simulyatsion mashg'ulotlar o'tkazilishi mumkin.

Mazkur tezis orqali O'zbekiston Respublikasining konsullik himoyasi bo'yicha mavjud huquqiy asoslari, amaliyotdagi faoliyati va tizimdagi muammolari atroflicha yoritildi. Xalqaro huquq me'yorlari — ayniqsa Vena konvensiyasi, milliy huquqiy hujjatlar — Konstitutsiya, Konsullik nizomi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th June 2025

asosida konsullik faoliyati yuritilmoqda. Ammo, real hayotiy vaziyatlar, ayniqsa pandemiya, migratsiya, ikki fuqarolik, raqamli xizmatlar yetishmasligi kabi holatlar bu sohani yangicha yondashuvlar bilan takomillashtirish zarurligini ko'rsatdi.

Rossiya, AQSh va Yevropa Ittifoqi kabi mamlakatlarning ilg'or tajribasi O'zbekiston uchun amaliy saboqlarni taqdim etadi. Shu asosda ishlab chiqilgan takliflar — qonunchilikni yangilash, raqamli xizmatlarni kengaytirish, faxriy konsullar institutini yo'lga qo'yish, kadrlar salohiyatini oshirish va fuqarolarning huquqiy savodxonligini ta'minlash — konsullik tizimini yanada zamonaviy va fuqaroga yaqin qilish imkonini beradi. Konsullik himoyasi nafaqat fuqarolarni huquqiy qo'llab-quvvatlash, balki davlatning tashqi siyosiy nufuzini oshirish vositasi sifatida ham muhim strategik ahamiyatga ega. Shu bois ushbu sohani chuqur ilmiy va amaliy asosda o'rganish, takomillashtirish, davr talablariga moslashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Konsullik aloqalari to'g'risidagi Vena konvensiyasi, 1963-yil. BMT rasmiy sahifasi:

https://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/conventions/9_2_1963.pdf

2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 1992-yil. <https://lex.uz/acts/35869>

3. O'zbekiston Respublikasining "Fuqaroligi to'g'risida"gi Qonuni, 2020-yil. <https://lex.uz/docs/4870321>

4. O'zbekiston Respublikasi TIV Konsullik Nizomi, 2019-yil. <https://lex.uz/docs/4378462>

5. Rossiya Federatsiyasining "Rossiya fuqarolarining chet eldagi huquqlari va erkinliklarini himoya qilish tartibi to'g'risida"gi qonuni. https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_24283/

6. AQSh Davlat Departamenti: Smart Traveler Enrollment Program (STEP). <https://step.state.gov/>

7. Yevropa Ittifoqining 2015/637-sonli Direktivasi. <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:32015L0637>